

■ **har bir shaxsda yoshlikdan o'z Vatani va xalqiga bo'lgan ijobiy munosabatni qaror toptirish**, shu maqsadda o'quvchi hamda talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni Vatan tuyg'usi, Vatan mehri, Vatan sog'inchini tarkib toptirish;

■ **har bir shaxsning o'z oilasi a'zolariga bo'lgan munosabati**, buning uchun bolalarni yoshligidan ota-onalari va oilaning katta a'zolarini hurmat qilish, kichiklarga mehr-shavqat ko'rsatish, adolatli va haqgo'y bo'lish, oilaviy qadryatlarni e'zozlash kabi ijobiy sifatlarni shakllanishiga ko'maklashish;

■ **har bir shaxsda o'zi yashayotgan jamiyatga nisbatan fuqarolik hissini uyg'otish**, buning uchun o'quvchilarda hamda talabalarining o'zlari yashab turgan ijtimoiy muhitga nisbatan xayrixohlikka asoslangan munosabatlarini tarkib toptirish;

■ **har bir fuqaroning o'z davlatiga bo'lgan munosabati**, buning uchun o'quvchi va talabalardan davlat tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar va siyosiy tadbirlarning mohiyatini tushunib yetishlari, uni targib qila olishlari, huquqiy-siyosiy bilimdonlikka ega bo'lishlari, iqtisodiy, ma'naviy, madaniy-ma'rifiy taraqqiyotga munosib hissa qo'shishga tayyor bo'lishlari talab etiladi²⁰.

Aksiologik yondashuv - bu ijtimoiy-pedagogik qadriyatlar tizimiga yo'naltirilgan nazariy g'oyalar majmui bo'lib, ularning o'zagi inson hayoti, erkin ijodiy faoliyat va insoniy muloqotning qadriyatini tushunish va tasdiqlashdan iborat. Ushbu yondashuvning asosiy vazifasi umuminsoniy madaniyatning ma'naviy va moddiy qadriyatlarini egallashdir.

Aksiologiya qadriyatlarining tabiatini falsafiy tadqiq etish XIX asrning ikkinchi yarmida yuzaga kelgan bo'lsa ham, qadimgi dunyo falsafasidayoq dunyoga qadriyatli munosabat o'ziga xos tavsirlanadi. O'sha davr faylasuflari tabiiy va ijtimoiy hodisalarni baholashda "yaxshilik", "ezgulik", "haqiqat", "foydali", "go'zal" kabi tushunchalardan foydalanishgan. Qadimgi Sharq falsafasi insonning ichki dunyosini tadqiq etishga katta e'tibor qaratgan. Qadimgi bobilliklarning yaxshilik bilan yomonlikning, ezgulik bilan yovuzlik, boylik bilan shoshoqlikning, zo'rlik bilan xo'rlikning bir-biriga tubdan zid ekanligi, o'zaro qarama-qarshi va murosasizligi haqidagi falsafiy g'oyalarni o'zida ma'lum darajada bayon qiluvchi bir necha asarlarida mavjudligini aytib o'tish zarur. Ularning birinchisida - baxt va baxtsizlik, adolat va adolatsizlik ularning sabablari, bartaraf etish yo'llari xususidagi dastlabki falsafiy tasavvur va g'oyalar bayon etilgan.

"Avesto" asarida insonning barkamol bo'lib yetishishida uning so'zi, fikri hamda ishi bir bo'lishiga katta e'tibor beriladi. Ushbu axloqiy uchlik g'oyasi eng qadimgi davrlardan boshlab kishilik jamiyati taraqqiyotining barcha bosqichlarida yaratilgan komil inson muammolariga bag'ishlangan Sharq falsafiy fikrlari mazmunining shakllanishiga asos bo'lgan desak, xato qilmagan bo'lamiz. Zero, unda odamning inson sifatida ma'naviy va moddiy kamol topishi uchun zarur bo'lgan muayyan talablar o'z ifodasini topib, hayot

²⁰ Pedagogika. Ensiklopediya. 1-jild. Mas'ul muharrir R.Safarov 100 bet

kodeksi sifatida nafaqat Sharq, balki G'arb xalqlarining ham muqaddas ma'naviy merosiga aylangan²¹.

Bugungi kunda axloqning umuminsoniy tushunchalari sifatida e'tirof etilgan ezgulik va yovuzlik, vijdon, muhabbat, burch va qadr-qimmat, hayot mazmuni va baxt tushunchalari eng avvalo, Sharq falsafiy-axloqiy ta'limotida talqin qilib berilgan. Mashhur faylasuf axloqshunos olim G.A.Golubevaning fikricha: "Mutaxassislar axloq masalalari bo'yicha talqinlar miloddan avvalgi birinchi ming yillik o'rtalarida bir vaqtda va bir-biridan mustaqil bo'lgan uch hududda Qadimgi Xitoy (Konfutsiy), Qadimgi Hindiston (Budda) va Qadimgi Yunoniston (yetti donishmand) paydo bo'ldi". Mazkur fikrga qo'shilgan holda, unga qisman to'ldirish va o'zgartirish kiritish lozim: «Axloq masalalari bo'yicha talqinlar miloddan avvalgi birinchi ming yillikning o'rtalarida bir vaqtda va bir-biridan mustaqil bo'lgan to'rt hududda - O'rta Osiyo (Zardo'sht), Qadimgi Xitoy (Konfutsiy), Qadimgi Hindiston (Budda) va Qadimgi Yunoniston (yetti donishmand) paydo bo'ldi". Bunday fikr Zardushtiylik dinida axloqiy me'yorlar asosi (axloqiy mezonlar) uchlikka tayangan edi: e zgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal. "Avesto" o'zining ma'naviy-axloqiy qarashlari bilan bir necha ming yillik kishilik taraqqiyotida sivilizatsiyaviy ta'sir ko'rsatgan, butun borliq, mavjudot, jimladan, inson mohiyati bilan bog'liq bo'lgan buyuk qardiyat. U asotiriy-diniy qarashlarga asoslangan bo'lsa-da, tub mohiyati bilan dunyoviy tafakkurning noyob, o'ziga xos, barkamol majmuasi, fundamental qarashlarga asoslangan, qomusiy ahamiyatga ega bo'lgan buyuk yodgorlikdir²².

Xalq og'zaki ijodi namunalarida jasurlik, mardlik, sadoqat, insoniylik, xushxulqlilik xislatlariga ega bo'lgan inson qiyofasi gavdalangan. Ibtidoiy turmush tarzi hamda odamlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar mazmuni insonlarda ana shunday sifatlarning shakllanishini taqozo etgan. Bilimlilik, xushxulqlilik, muayyan kasb yoki hunarga ega bo'lish inson ma'naviy kamolotini belgilovchi asosiy ko'rsatkichlar hisoblangan. Ushbu axloqiy sifatlarda ham axloqiy munosabatlar ko'rinishi ifodalangan.

Bugungi kunda ta'limiy qadriyatlar, ularning tabiati, funksiyalari, o'zaro aloqadorligi pedagogik aksiologiyada rivojlanib bormoqda. Chunki zamonaviy jamiyat ta'limni o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarni egallashining maqsadga yo'naltirilgan jarayoni va natijasi sifatida tushunishdan uzoqlashdi. Ta'lim bu insonda insoniylikni tarkib toptirishdir. Uning asl mohiyati ham ana shunda. Ta'limning ma'naviyatni tarkib toptirishdagi ahamiyati uni qadriyatli bilimlarni uzatish va uning asosida insonda qadriyatli munosabat, qadriyatli xulq-atvorni shakllantirishda ekanligini o'z vaqtida Aflotun ham ta'kidlab o'tgan edi. U davlatning asosini qolgan barchasi unga bog'liq bo'lgan yagona birlik aks ettiradi, deb hisoblagan. Bunday asos - oliyjanoblikdir. Olim yuksak oliyjanoblik sifatida hech narsa yaxshilik va yomonlik haqida unday ma'lumot bera olmaydigan bilimni e'tirof

²¹ Sh.Mardonov, B.Xodjajev, Sh.Taylanova, D.Xojimuxamedova. "Pedagogik aksiologiya" T.: 2013 51 bet.

²² Narzulla Jo'rayev. "Avesto". G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. T.: 2015 yil. 12 bet.

etadi. Bilimda qanchalik oliyanoblik o'z ifodasini topganligini esa ta'lim jarayonida o'rganish mumkin²³.

Aksiologiya (yun. *axio* – qadriyat va *logos* – fan, ta'limot) – qadriyatshunoslik, ma'naviy hodisalardan biri bo'lgan qadriyatlar sohasini o'rganadigan, uning qonun va kategoriyalarini tadqiq qiladigan ilm yo'nalishi, qadriyatlar haqidagi fan²⁴. U XIX asrning ikkinchi yarmida nemis qadriyatshunosi E.Gartman va fransuz olimi P.Lapi tomonidan ilmiy iste'molga kiritilgan. Aksiologiya aksiologik ong, qadrlash tuyg'usi, aksiologik bilish, qadrlash tamoyiliga tayanib to'plangan qadriyatlar to'g'risidagi bilimlar sistemasidir. Aksiologiya — qadr, qadrlash, qadriyatlar, qadriyatlar tizimi kabi aksiologik kategoriyalarni, ularning turli shakllarini o'rganadi. Qadriyatlar tizimining ijtimoiy taraqqiyotga bog'liqlik qonuni, qadriyatlar tizimining o'zgarishi va takomillashuvi bilan bog'liq aksiologik qonunlar ham aksiologiya shug'ullanadigan masalalar doirasiga kiradi.

Mamlakatimizda izchil davom ettirilayotgan yangi demokratik jamiyat qurish jarayoni qadriyatlar mavzusini g'oyat dolzarb qilib qo'yimoqda. Bugungi kunda qadriyatlarni qayta baholash, azaliy milliy qadriyatlarimizni tiklash, asrab-avaylash va kelajak avlodlarga bezavol yetkazish, islohot va o'zgarishlarning xalqimiz ongida yangicha qadriyatga aylanib bora'etgan jihatlarini aniqlash, mavjud muammolarni hal qilishda ana shu qadriyatlarga mos usullarni qo'llash kabi masalalar paydo bo'ldi. Ularni yechish aksiologik mavzularni kun tartibiga muhim masala qilib qo'ya boshladi. Hozirgi davrga kelib mamlakatimizda qadriyatshunoslik masalalari keng o'rganilmoqda.

Barchamizga ma'lumki, tarbiya – aniq maqsadli hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishga, ularning ongini, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan tizimli jarayondir. Axloq esa ma'naviyatning tarkibiy qismi sifatida shaxs kamolotining yuqori bosqichi sanaladi. Axloq (arab. xulqning ko'pligi; lot. *moralis* – xulq-atvor) – ma'naviy hayot hodisasi, ijtimoiy ong shakllaridan biri, ma'naviyat sohasiga oid tushuncha. Kishilarning tarixan tarkib topgan xulq-atvori, yurish-turushi, ijtimoiy va shaxsiy hayotidagi o'zaro munosabat, shuningdek, jamiyatga bo'lgan munosabatlarini tartibga solib turadigan barqaror, muayyan me'yor va qoidalar yig'indisi. Axloq talablari kishilarning fa'l-atvori va faoliyatida o'z ifosadini topadi²⁵. Ma'rifatparvar olim A.Avloniy shunday ta'rif bergan: “insonlarni yaxshilikg'a chaqirguvchi, yomonlikdan qaytarguvchi bir ilmdur. Yaxshi xulqlarning yaxshiligini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va misollar ila bayon qiladurg'an kitobni axloq deyilur. O'z aybini bilib, iqrar qilub tuzatmakg'a sa'y va ko'shish qilgan kishi chin bahodir va pahlavon kishidir²⁶”. Forobiyning fikricha, “inson bilimli va namunali axloq egasi bo'lgandagina ijobiy xislatlari bilan barchaga o'rnak bo'la oladi. Axloqiy tarbiya esa, jamiyat ma'naviy hayotidagi muhim ijtimoiy hodisa bo'lib, odob-axloq tizimini, axloqiy fazilatlarini zamon talablari asosida har

²³ Sh.Mardonov, B.Xodjajev, Sh.Taylanova, D.Xojimuxamedova. “Pedagogik aksiologiya” T.: 2013 5 bet.

²⁴ Ma'naviyat asosiy tushunchalar lug'ati. A.Sherov, A.Xolbekov, M.G'afforova va boshq.Toshkent 2009 yil 27-bet.

²⁵ “Ma'naviyat asosiy tushunchalar lug'ati” T.: 2009 yil. 60 bet.

²⁶ Abdulla Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq”. YOSHLAR NASHRIYOT UYI. T.: 2019 5 bet.

qaysi avlod ongiga singdirish shakli bo'lib, o'sib kelayotgan yosh avlodda xulq odob me'yorlariga mos keladigan, zamon talablariga beradigan insoniy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan ilmiy va amaliy harakatlar tizimi tushuniladi"²⁷.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Pedagogika. Ensiklopediya. 1-jild. Mas'ul muharrir R.Safarov 100 bet
2. Sh.Mardonov, B.Xodjayev, Sh.Taylanova, D.Xojimuxamedova. "Pedagogik aksiologiya" T.; 2013 51 bet.
3. Narzulla Jo'rayev. "Avesto". G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. T.: 2015 yil. 12 bet.
4. Ma'naviyat asosiy tushunchalar lug'ati. A.Sherov, A.Xolbekov, M.G'afforova va boshq.Toshkent 2009 yil 27-bet.
5. Abdulla Avloniy "Turkiy guliston yoxud axloq". YOSHLAR NASHRIYOT UYI. T.: 2019 5 bet.

²⁷ "Ma'naviyat asosiy tushunchalar lug'ati". T.: 2009 yil. 64 bet.

FAZODA SODDA GEOMETRIK SHAKLLAR HAQIDA O'QUVCHILARDA TASAVVUR HOSIL QILISH

Xudoynazarova Adiba Shovrux qizi

Qashqadaryo viloyati Yakkabog' tumani

76-umumiy o'rta ta'lim maktabi


Matematika va geometriya fani o'qtuvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqoladama'ktab va kasb-hunar maktabi o'quvchilarida fazoviy shakllar haqida to'liq ma'lumot berib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *Ko'pyoq, fazoviy jism, qavariq ko'pyoq, yassi qavariq ko'pburchak, prizma, kub, muntazam prizma, parallelepiped.*


Geometriya kursida tekislikdagi figuralar va fazoviy jismlar o'rganiladi. Biz sirtida fazoviy jismlar – ko'pyoqlarga tegishli ma'lumotlarni keltiramiz.

1-ta'rif. Sirti chekli miqdordagi yassi tekisliklardan iborat jism ko'pyoq deyiladi.



1-chizma

Ko'pyoqlar berilishi jihatidan ikki turga bo'linadi: muntazam va nomuntazam ko'pyoqlar. Ko'pyoq o'zini chegaralovchi tekisliklarning har biridan bir tomonda yotsa, u qavariqdir. Qavariq ko'pyoqning sirti bilan bunday tekislikning umumiy qismi yoq deyiladi. Qavariq ko'pyoqning yoqlari yassi qavariq ko'pburchaklardan iborat. Ko'pyoq yoqlarining tomonlari uning qirralari, uchlari esa ko'pyoqning uchlari deyiladi. Masalan, kub qavariq ko'pyoqdir, uning sirti oltita kvadratdan-yoqlardan tashkil topgan (2-chizma). ABCD, BEFC,... .Bu kvadratlar kubning yoqlaridir. Bu kvadratlarning AB,BC,BC,BE,... tomonlari kubning qirralari bo'ladi. Kvadratlarning A,B,C,D,E,... uchlari kubning uchlari bo'ladi. Kubda oltita yoq, o'n ikkita qirra va sakkizta uch bor.



2-chizma

Prizma.

Prizma ikkita parallel tekislik orasiga joylashgan barcha parallel to'g'ri chiziqlar kesmalaridan tuzilgan ko'pyoq bo'lib, bu kesmalar shu tekisliklardan birida yotgan yassi ko'pburchakni kesib o'tadi (3-chizma). Ko'pburchaklar prizmaning asoslari deyiladi, mos